

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR MILLIY
MARKAZI**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
INGICHKA TOLALI PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
TERMIZ DAVLAT MUXANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

**RESPUBLIKANING JANUBIY XUDUDLARIDA INGICHKA TOLALI
G‘O‘ZANING BIRINCHI TIP TOLA BERADIGAN SP-1607 NAVIDAN
YUQORI HOSIL YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI BO‘YICHA
T A V S I Y A L A R**



Termiz-2025 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR MILLIY
MARKAZI
PAXTA SELEKSIYA, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
INGICHKA TOLALI PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
TERMIZ DAVLAT MUXANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

RESPUBLIKANING JANUBIY XUDUDLARIDA INGICHKA TOLALI
G‘O‘ZANING BIRINCHI TIP TOLA BERADIGAN SP-1607 NAVIDAN
YUQORI HOSIL YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI BO‘YICHA
T A V S I Y A L A R

Termiz-2025 yil

Mavzu: Respublikaning janubiy xududlarida ingichka tolali g'ozaning birinchi tip tola beradigan sp-1607 navidan yuqori hosil yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyalar.

Ushbu tavsiyanoma 2015-2024 yillar davomida Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining (PSUEAITI) Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi hozirgi Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va viloyatning Angor, Jarqo'rg'on, Sherobod, Qiziriq va Termiz tumanlarida o'tkazilgan tajriba natijalari va Davlat nav sinash muassasalari ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Ushbu tavsiyanoma Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari q.x.f.f.d O.T.Alimardonov, q.x.f.n. k.i.x, M.Tadjiev, q.x.f.f.d N.N.Ochildiev, q.x.f.f.d X.D.Charieva, q.x.f.d, k.i.x K.M.Tadjiev, q.x.f.f.d G.Qurbonava, F.A.Abdullaev, N.Ye.Avliyaqulov, A.V.Danaboev, B.O'.Begimqulovlar tomonidan tayyorlangan.

Ushbu tavsiyanoma fermer xo'jaliklari rahbarlari, mutaxassislari, viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, tumanlar qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari mutaxassislari, rahbarlari, oliy o'quv yurtlari agronomiya va biologiya fakultetlari hamda qishloq xo'jaligi kollejlari talabalariga qo'llanma sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan.

Ushbu tavsiyanoma ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashida 2025 yil 31.01 dagi (bayonnoma № 25) matbuotda chop etishga tavsiya etilgan.

Taqrizchi:

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti professori, qishloq xo'jaligi

fanlari doktori

S.M.Boltaev

PSUEAITI fanlari doktori professor

Sh.X.Abdualimov

1.Kirish

Respublika Prezidenti va hukumati mamlakatimizda paxtachilikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqdalar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoni va 2021 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4975-sonli qaroriga muvofiq Vazirlar Maxkamasi qarori e'lon qilindi.

"Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18 mart 2022 yildagi PQ-170-sonli qaroriga asosan Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi negizida Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Yangi Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilar etib belgilandi:

- g'o'zaning ingichka tolali yangi navlarini yaratish va ularning birlamchi urug'chiligini tashkil etish;

- g'o'zaning ingichka tolali yangi navlarini yetishtirishda tuproq unumdorligini oshirish va resurs tejaydigan agrotexnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligi sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, shuningdek, g'o'zaning ingichka tolali yangi navlarini yetishtiruvchi sub'ektlarning malakasini oshirish;

Yetakchi mahalliy va xorijiy ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, sohaga mahalliy va xorijiy grantlarni hamda investitsiyalarni jalb etish;

Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston paxta to'qimachilik klasterlari talablaridan kelib chiqqan holda 2022 yilda 12 ming gektar maydonga, 2023 yilda 18 ming gektar maydonga va 2024 yilda 30 ming gektar maydonga g'o'zaning ingichka tolali navlarini joylashtirish;

Hozirgi paytda ingichka tolali g'o'zaning Surxon-14, Surxon-16, Surxon-103, Surxon-18, SP-1607, Termiz-202, Termiz-208 kabi navlari ekilmoqda. Ushbu navlarning tolasi birinchi tipga mansub bo'lib, tezpishar, serhosilligi va tola sifati xalqaro andozalar talabiga javob beradi.

Ingichka tolali g'o'zaning yana mukammal, issiqlik, garmsel, kasallik va hasharotlarga chidamli navlarini yaratish bo'yicha seleksioner va agrotexnik olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirilmoqda.

Hurmatli fermer xo'jaliklari va paxta to'qimachilik klasterlari boshliqlari ingichka tolali g'o'za navlarini o'zingiz tanlab, sizga yoqqan navni ishonch bilan eking. Navlarga hech qanday shubha qilmang. Hosildorlikning 20% navga bog'liq bo'lsa, 80% uning agrotexnikasiga bog'liq ekanligi ilmiy asoslangan.

Viloyatda g'o'zaning vilt kasalligi ko'payib ketgan yillari, aniqrog'i 1985-1987 yillarda viloyat 520-550 ming tonna paxta terib topshirgan. Viloyatda har gektar maydondan 35-37 sentnerdan paxta hosili yetishtirilgan. Ingichka tolali g'o'za navlaridan ko'p hosil yetishtirish uchun qo'shqatorlab 60x30-2 tizimida ekilsa, har gektariga kam unumdor tuproqlarda 200-250 ming tup son qoldirish paxta hosilini 35-45 s/ga, hatto 50-60 s/ga hosil olish mumkin.

Ingichka tolali g'o'za navlarini eksangiz hosili yuqori bo'lib, xo'jalikning iqtisodi yaxshilanadi va rentabellik darajasi yanada yuqori bo'ladi.

Joriy yilda Angor tumanidagi "Zamin Agro" klaster MChJdagi ba'zi ilg'or fermerlar 50-60 s/ga g'o'zaning Termiz-202 navidan paxta hosili terib olib, Respublikada birinchilar qatorida rejani bajardilar. Ana shu sababli Angor tumani rentabilli tumanga aylandi.

Iqtisodiyotni yuksaltirishning eng samarali usuli ingichka tolali g'o'za navlarini ekishga o'tib oling, ingichka tolali g'o'za navlarining bir tonnasi o'rta tolali navlarga nisbatan ancha yuqori narxlarga xarid qilinadi. Ingichka tolali

g'oz navlari tolasi noyob bo'lib, jahonda eng issiq mamlakatlarda ekiladi va maydoni cheklangan. O'rta tolali g'oz navlari dunyoning 87 ta mamlakatida yetishtiriladi, ingichka tolali g'oz navlari jahonning 8-10 ta mamlakatida ekiladi xolos.

Ingichka tolali g'oz navlari Misr, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Sudan, Peru, Braziliya, Xitoy, AQSh va Hindistonda yetishtiriladi.

Ma'lumki, har qarich yer davlatniki, demakki, xalqimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Yerdan samarali va oqilona foydalanish barchamizning fuqarolik burchimizdir. Hammamiz yaxshi bilamizki, "yerni boqsang yer ham seni boqadi" degan maqol bejizga aytilmagan. Bu sohada katta natijaga erishmoqchi bo'lsak, birinchi navbatda rizqu-ro'zimiz bo'lgan yerni boqishimiz, tuproq unumdorligini saqlashimiz va oshirishimiz shu kunning eng dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 16 yanvardagi "Mamlakatimizni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni xalqimiz anchadan beri kutayotgan muhim tarixiy xujjat bo'lib, yurtimizda eksport-import operatsiyalarini tartibga solish, ehtiyoj katta bo'lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishga barham berildi.

2. INGICHKA TOLALI G'O'ZANING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI, PAXTA TOLASIGA QO'YILADIGAN ASOSIY SHARTLAR VA PAXTADAN YUQORI HOSIL YETISHTIRISH OMILLARI, ILMIY-TADQIQOT O'TKAZISH USLUBI VA TUPROQ IQLIM SHAROITLARI

2.1. Ingichka tolali g'o'zaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ingichka tolali g'o'za navlari biologik xususiyatlariga ko'ra, issiqsevar o'simlik bo'lib, qurg'oqchilik va garmselga bardoshli.

Dunyoning 87 mamlakatida g'o'za ekini parvarish qilinadi, 19,5-20 million tonna paxta tolasini yetishtiriladi shundan, ingichka tolali g'o'za navlari 1a, 1b, 1 va II, III-tip tola beradi va 1,2 mln tonna tola ishlab chiqariladi. Ingichka tolali g'o'za tolasini juda noyob, bejirim, uzun, mayin va pishiq bo'lib, ayniqsa texnik maqsadlarda ko'p ishlatiladi, aviatsiya, avtomobil, sanoatda shinalar, sputnik shinalari tayyorlashda ishlatiladi. Ingichka tolali paxta tolasini boshqa sun'iy tolalar bilan almashtirilmaydi. Ingichka tolali g'o'za navlari tolasidan ayollar uchun nafis, bejirim to'qimalar, erkaklar ko'ylaklari, yuqori markali kalava iplar tayyorlanadi.

Ingichka tolali g'o'za navlari birinchi tip tola beradigan navlardan (№200,170,150,134) raqamli kalavalar olinib, parashyut gazlamasi, paxmoq matolar, batist, vual, ekstra, yuqori sifatli kord, juda qattiq poyafzal tikishda ishlatiladi. Birinchi tip tolagacha to'qimachilik sanoatining talabi jahonda 4,0 foiz, ikkinchi tip tola beradigan (№135,120,100) raqamli kalava yigirilib, perkal, yuqori sifatli ip duxoba, ekstra, namsuk kabi paxmoq matolar tayyorlanadi. To'qimachilik sanoatining ikkinchi tip tolagacha talabi-5,5 foiz va uchinchi tip tolali g'o'za navlari tolasidan (№91, 85, 76,71) maxsus raqamli kalava ip tayyorlanib, maxsus raqamli iplar (№85,60) ola-bo'la ro'lonlik ip, duxoba, yuqori sifatli satin va boshqalar tayyorlanib, to'qimachilik sanoatining uchinchi tip tola beradigan navlarga talabi 4,5 foizni tashkil qiladi.

Ingichka tolali paxtaning birinchi, ikkinchi va uchinchi tip tolali navlarga ham to'qimachilik sanoatining talabi yetarli.

Keyingi yillarda ingichka tolali yuqori sifatli (nomerli) kalava ip ishlab chiqarishga mo'ljallangan uzun-mayin, ingichka tola yetishtirishga to'qimachilik sanoati tomonidan talab kuchaymoqda.

Ingichka tolali g'o'za navlari jahonda bir nechta davlatda parvarish qilinmoqda. U AQSh, Peru, Braziliya, Misr, Turkiya, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Isroil, Xitoy va Hindistonda yetishtiriladi. Ingichka tola g'o'za navlarini yetishtirish uchun respublikamizning janubiy viloyatlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarining tuproq iqlim sharoitlari juda mos keladi.

Ingichka tolali g'o'za navlari tolasini o'rta tolali g'o'za navlariga nisbatan bir tonna tola mahsuloti 1,5 marta yuqori narxlarga xarid qilinadi va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti yanada yuksaladi, yuqori rentabillikka erishiladi. 1985-1987 yillarda viloyatimizda o'rta tolali g'o'za navlari vertitselioz vilt bilan kuchli zararlanganligi tufayli asosiy maydonlarga ingichka tolali g'o'za navlarini ekib, har gektar maydondan o'rtacha 35-37 s/ga paxta hosili yetishtirilib, eng serdoramad, eng yuqori rentabillik natijalarga erishgan edilar.

Hurmatli fermerlar va klasterlar rahbarlari ingichka tolali g'o'za navlarini eking, ingichka tolali g'o'za navlari 1a, 1, 1 b, II, III-tip tola beradigan navlardan texnik maqsadlar uchun qo'shqatorlab, 60x30, bir pogonometrda 20-24 ta ko'chat qoldirib, har gektar maydonga 180-220 ming/ga, unumdorligi past tuproqlarda 220-250 ming/ga parvarishlab sug'orish va oziqlantirish, xashoratlarga qarshi kurashish to'g'ri amalga oshirsak, bema'lol 45-50, hatto 55-60 s/ga paxta hosilini terib olishni kafolatlaydi.

2.2. Paxta tolasiga qo'yiladigan asosiy shartlar va paxta dalalarida hosil yetishtirishning muhim omillari

Qishloq xo'jaligi sohasida qo'yiladigan asosiy maqsad yerdan oqilona foydalanib, mo'l va sifatli paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan iborat.

Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan har bir viloyatning tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan g'oz navlarini tanlab, to'g'ri joylashtirish va ularga mos keladigan agrotexnologiyalarni qo'llash paxtachilikda shu kunning eng dolzarb muammosi hisoblanadi.

Har bir tuproq-iqlim sharoitiga ekish uchun tanlangan g'oz navlari qator talablarga to'liq javob berishi lozim:

- yangi nav serhosil, tolasi xaridorgir bo'lishi, xashorat va kasalliklarga chidamli, iqlim, ob-havo o'zgarishlariga bardoshli, tola chiqishi yuqori va tolasi oq bo'lishi;

- tolasi chigitdan oson ajraladigan, tolaning ifloslanishi past, chigitning po'stlog'i tolaga o'tmasligi;

- tola sifati xalqaro andoza talablariga to'liq javob beradigan, mikroneyr ko'rsatkichlari 4,4-4,8 o'rta tolali navlarda va ingichka tolali g'oz navlari tolasi 3,5-4,4 ko'rsatkichda bo'lishi;

- chigitning yog'dorlik darajasi va sifati yuqori bo'lishi zarur bo'ladi.

Respublika "Sifat" laboratoriyasi ma'lumotlariga ko'ra tola uzunligi va mikroneyr ko'rsatkichlari muhim rol o'ynashi aniqlangan.

Tola sifati yuqoridagi talablarga to'liq javob bergan yangi navlar rayonlashtiriladi va ishlab chiqarish sharoitida uzoq yillar ekiladi. Ana shunday g'oz navlariga Buxoro-6, Namangan-77, S-6530, S-6524 navlari misol bo'ladi.

Shular bilan birga har bir navning irsiy belgilari tezpisharligi, hosildorligi, tola sifati, g'ozani parvarishlash usullari, ob-havo sharoitlari, tuproq unumdorligi va uning meliorativ holatiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

- havo harorati, yog'ingarchilik miqdori, shamol va garmsel tezligi, quyosh radiatsiyasi kuchi;

- tuproq unumdorligi va uning mexanik tarkibi, yer osti suvlarining joylashish chuqurligi va sho'rlanish darajasi;

- har bir g'oz navi uchun mos keladigan urug' ekish muddatini to'g'ri belgilash;

-yerni ekishga sifatli tayyorlashdan boshlab, hosil pishib yetilguncha o'tkaziladigan parvarishlash texnologiyasini o'z vaqtida va sifatli o'tkazish, g'ozadan mo'l va sifatli paxta hosili yetishtirishda asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Hurmatli fermerlar barcha agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida va sifatli bajarilsa, g'ozaning o'sishi, rivojlanishi seravj bo'lib, paxtadan ertaki, mo'l va sifatli hosil yetishtirishni kafolatlaydi.

2.3. Ilmiy-tadqiqot o'tkazish uslubi va tuproq tabiiy iqlim sharoitlari

O'tkazilgan barcha tadqiqotlarda fenologik kuzatuvlar "Dala tajribalari o'tkazish uslubiyoti" (2007) va "Metodika polevyykh opytov s xlopchatnikom" (O'zPITI 1981), "Qishloq xo'jalik ekinlari navlari Davlat sinovi uslubiyoti" (Moskva, Kolos, 1969 y) va "Tuproq va o'simliklarni agrokimyoviy tarkibi PSUEAITI ning yoppasiga taxlil laboratoriyasi" da amalga oshirilgan, hosildorlik ko'rsatgichlariga B.A.Dospexov (1966y) uslubi bilan matematik ishlov berilgan. Tajribalar PSUEAITI ning Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida va viloyatning Angor, Termiz, Jarqo'rg'on, Muzrabot tumanlarida o'tkazilgan.

Surxondaryo viloyatining tuproq iqlim sharoitlari respublikaning shimoliy va markaziy viloyatlaridan tubdan farq qiladi.

Surxon-Sherobod vohasi O'zbekistonning eng janubiy qismida joylashgan bo'lib, Surxondaryo viloyatining sug'oriladigan yerlari asosiy qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladigan maydoni bo'lib hisoblanadi.

Ushbu xududda sug'oriladigan yerlar asosan Surxondaryo va To'palang, Sherobodaryo, Amudaryo suvlaridan va mavjud suv omborlaridan sug'oriladi, Geomorfologik tuzilishiga ko'ra Surxon-Sherobod vohasi ikki qismga bo'linadi:

1. Tog'lik qism (yarim cho'l-bo'z tuproqlar mintaqasi);
2. Tekisliklar qismi (dasht-taqirsimon tuproqlar mintaqasi);

Vohani sug'oriladigan yerlari tuproq sharoitiga ko'ra "O'zGIPROZEM" ilmgohining 1970 y ma'lumotiga asosan ikkita katta guruhga bo'linadi.

1. Bo'z tuproqlar qismida. To'q rangli bo'z tuproq, tipik bo'z tuproq, och bo'z tuproq, bo'z-o'tloqi tuproq, botqoq tuproqlar mavjud. Ular dengiz sathidan 450-

1000 metr balandlikda joylashgan. Viloyatning boʻz tuproq mintaqasida ham qishdan bahorga oʻtishda havo harorati tez-tez oʻzgarib turadi. Fevralda havoning oʻrtacha harorati 4,9⁰S, martda 10,1, aprelda 16⁰S daraja boʻlib, dasht mintaqasiga nisbatan ob-havo sharoiti qisman yumshoqligi bilan farq qiladi. Bu mintaqada yillik yogʻingarchilik miqdori 300-400 mm ni tashkil etadi.

2.Choʻl qismi - bu yerda taqirsimon, boʻz – qoʻngʻir, taqir-oʻtloqi, choʻl qoʻmoq, choʻl oʻtloqi va shoʻrxok tuproqlar tarqalgan. Past tekisliklar qismi dengiz sathidan 350-450 metr balandlikda joylashgan. Viloyatning janubiy dasht mintaqasida qishdan bahorga oʻtishda havo haroratining keskin oʻzgarishi kuzatiladi. Fevral oyida oʻrtacha sutkalik havo harorati 5,7-6,3, martda 11,3 va aprelda 18,0-18,4⁰S daraja, mayda 24-25⁰S, iyunda 30⁰S daraja boʻladi. Yil davomida oʻrtacha 90-130 mm miqdorda yogʻingarchilik boʻladi.

Surxondaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2059,9 ming/ga, shundan foydalaniladigan tuproqlar 450,2 ming/ga, sugʻoriladigan maydon 333,8 ming/ga, qolgan 1358,7 ming/ga maydonni togʻlik, adirlik, daryo va koʻl hamda boshqa yerlar tashkil etadi.

Boʻz qoʻngʻir tuproqlar maydoni 6793 ga, taqir tuproqlar 82684 ga, taqir-oʻtlogʻi tuproqlar 10645 ga, choʻl qumoq tuproqlar 9358 ga, choʻl oʻtloqi tuproqlari 46417 ga va shoʻrhoklar 21506 gektarni tashkil etadi.

Surxondaryo viloyati iqlim sharoiti keskin oʻzgaruvchan boʻlib, yillik sutkalik harorat oʻzining oʻta quruqligi va qishda namlikning yuqoriligi bilan boshqa mintaqqa iqlimidan ajralib turadi. Havo harorati baʼzi kunlari bir sutka davomida 2-3 holatga oʻzgaradi va havo harorati yozda bir sutkada 40⁰S darajadan ertasi kuni 25⁰S gacha kamayadi yoki koʻtariladi. Bu esa qishloq xoʻjalik ekinlari oʻsishi, rivojlanishi va hosil toʻplashiga salbiy taʼsir etadi. Demak, havo haroratining baland boʻlishi va oʻzgarib turishining meʼyori mavjud ekan.

Yillik yogʻingarchilikning asosiy qismi bahorda va qishda tushadi, yozda va kuzda yogʻingarchilik kam boʻlib, bugʻlanishi yuqori boʻladi.

Tuproq-iqlim sharoitiga ko'ra bo'z tuproqlar mintaqasi tog' oldi va tog' etaklarida joylashgan tumanlar: Boysun, Uzun, Sariosiyo, Denov, Sho'rchi, Oltinsoy, Bandixon va Qumqo'rg'on tumanining bir qismini qamrab oladi.

Asosan cho'l mintaqasi tumanlariga Jarqo'rg'on, Termiz, Muzrabot, Sherobod, Qiziriq va Angor tumanlari va Bandixon, Qumqo'rg'on tumanlarining bir qismi kiradi. Voha cho'l qismida harorat yuqori, bu yerlarda yillik o'rtacha harorat $16,6^{\circ}\text{S}$ atrofida, Termiz tumanida $18,1^{\circ}\text{S}$, Sherobod tumanida bu ko'rsatkich $19,1^{\circ}\text{S}$ ga yetgan yillar ham bo'ladi. Mavsum davomida ushbu tumanlarda o'rtacha harorat $25,6-26,7^{\circ}\text{S}$ bo'ladi. Yozda havoning o'rtacha harorati $32-34^{\circ}\text{S}$ ga, kunlik harorat $36-38^{\circ}\text{S}$ ga yetadi.

Bu yerlarda eng yuqori harorat $46-50^{\circ}\text{S}$ ga yetadi. Eng past harorat esa -20°S atrofida bo'lishi kuzatilgan. Yillik foydali harorat $2704-3456^{\circ}\text{S}$, umumiy haroratlar yig'indisi $5900-6450^{\circ}\text{S}$ ga yetadi.

3. SP-1607 NAVI MORFOLOGIYASI, BIOLOGIYASI VA PARVARISHLASH TEXNOLOGIYASI

Navning kelib chiqishi. Ingichka tolali SP-1607 g'o'za navi 2001 yilda PSUEAITI ilmiy tajriba stansiyasida (Sobiq O'z PITI Surxondaryo filiali) Termiz-24 x F₃ (9871 y x T-24) nav va duragaylarining chatishtirish va ko'p marta yakka tanlov o'tkazish yo'li bilan yaratilgan.

Muallif: X.D.Charieva, hammualliflar N.N.Ochildiev va boshqalar.

Morfologik belgilari: Gossypium Barbadense turiga mansub g'o'zaning bo'yi 100-110 sm, prizmatik shaklida o'sadi, o'rtacha tuklangan, o'suv shohi 1-2 ta, hosil shoxlari cheklangan. 3-4 bo'g'indan birinchi hosil elementlari chiqaradi. Barglari o'rtacha kattalikda, 3-5 bo'lakchali to'q yashil rangda. Gultoj barglari sariq rangda. Gulyon barglari o'rtacha kattalikda 9-12 tishli. Ko'saklari o'rtacha kattaliqda, tuxumsimon-cho'zinchoq, qisqa burunchali, uchi sal qayrilgan. Chigiti tuklangan.

Biologik xo'jalik belgilari.

- Ingichka tolali SP-1607 g'o'za navining 50% ochilishi 116-kun

- O'simlik bo'yi 115-120 sm
- O'simlik poyasi to'q yashil rangda
- Birinchi hosil shoxi qisqa
- Bargi kaftsimon o'rtacha kattalikda gassipol bezlari mavjud
- Ko'sak ochilishi o'rtacha paxtasi to'kilmaydi
- Bir dona ko'sakdagi paxta vazni 3,6-3,7 gr.
- Tola tipi I-tip bo'lib, tola rangi qaymoq rangda
- Tola hosildorligi 14-15 s/ga
- Tola chiqimi 34-35%
- Tola uzunligi 39-40 mm.
- Tolaning uzilish uzunligi 39,7 gr kuch/teks
- Mikroneyri 3,9-4,0.
- 1000 dona chigit vazni 131 gr.
- STR-34,9
- LEN-1,31
- Chigiti tukli
- Umumiy hosildorlik 50 s/ga
- Sentabr oyi hosili 35-37 s/ga

Tolasining texnologik sifati. Tolasining metrik nomeri-7340, tola pishiqligi - 4,5 gs, nisbiy uzulish - 31,4 gs/teks. Tola birinchi tip bo'lib, so'nggi yillarda ushbu nav tolasini yaxshilash bo'yicha uzoq yillar izlanishlar olib borildi va nav tolasini 2023 yilda Respublika "Sifat"laboratoriyasi ma'lumotiga ko'ra birinchi tip ekanligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi "Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish Markazi Davlat Unitar korxonasi markaziy laboratoriya HVI tizimi rusumi Vinter HVI -1000 O'Z DSE ISO/IEC 17025\$ 2007 UZ/ AMT/ 07 MAL 628

Sinov natijalari

28.11. 2019 y.

Partiya raqami SP-1607

SCE ip yig'iruvchanlik koeffitsienti -181

MIC mikroneyr 3,9-4,0

MAT pishib yetilganlik koeffitsienti -0,87

Tip-1

VHML-yuqori o'rta uzunlik DYuYM-1,26

VI-bir xillik indeksi -86%

SFI-kalta tolalar indeksi -5,5%

Str-solishtirma uzulish kuchi, g kuch/teks-40,8

Elg-uzulishdagi uzayish-7,3

Rg-nur qaytarish koeffitsienti-78,4 %

+6-sarg'ishlik darajasi-8,7

CGRD-rang bo'yicha nav -21,4

TRCNTiflos aralashmalar soni -11

Tr-Ar-iflos aralashmalar maydoni -0,2%

Tr/ID Trech kod -2

Yetishtirish agrotexnikasi.

SP-1607 navi chigitini ekishning qulay muddati 25 mart 10 aprel. 1-2 ta chin barg chiqarganda yagonalanadi. Ko'chat qalinligi tuproq turi va unumdorlik darajasiga qarab gektariga 120-140 ming, qo'shqator usulida 160-180 ming tupgacha o'simlik qoldiriladi, kam unumli yengil qumoq tuproqlarda 200-220 ming/ga tup son parvarishlash mumkin.

Ko'chatlarni joylashtirish sxemasi.

Qator orasi 60 sm bo'lgan 60x15-1; 60x12-1;

Qator orasi 90 sm bo'lganda 90x10-1; 90x8-1; va qo'shqatorlarda 60x30x5; 60x30x6; unumdorligi past tuproqlarda 60x30x8; 60x30x10 dona niholni parvarishlash tavsiya etiladi.

Sug'orish rejimi yengil tuproqlarda 1-4-2, o'rtacha tuproqlarda 1-3-2, og'ir tuproqlarda 1-3-1. Tuproq namligi dala nam sig'imiga nisbatan 70-75-65 % ni tashkil qilganda sug'orish tavsiya qilinadi.

O'g'itlashning yillik maqbul me'yori N-250, P-175, K-100 kg/ga. Azotli o'g'itlar oxirgi oziqlantirish 15-25 iyundan kechikmasligi kerak.

G'o'zani chilpishni tuproq unumdorligi o'rtacha dalaga 16-17 ta va unumdor tuproqlarga 17-18 ta hosil bo'g'ini paydo bo'lganda o'tkazish maqsadga muvofikdir. Navni kimyoviy usulda o'tkazish eng samaralidir. Defoliatsiyani hosilning 60-70 foizi pishib yetilganda o'tkazish ma'qul bo'ladi. Paxta hosilini mashinada terishni hosilning 80 foizi ochilib, 85-90 foiz barglari to'kilganda o'tkazish tavsiya qilinadi.

4. KONKURS NAVLAR TANLOV SINOVI TAJRIBA NATIJALARI

Barcha yangi navlar konkurs navlar sinovi tajribalarida ekilayotgan standart navlar bilan birga taqqoslab o'rganildi.

Yangi SP-1607 navi O'zPITI Surxondaryo filialida o'tkazilgan konkurs navlari tanlovi tajribasida 2014-2015 yillar natijalariga to'xtab o'tamiz. 2020 yillarda sentabr oyi hosili 43,9 s/ga va umumiy paxta hosili 60,3 s/ga standart navdan 8,0 s/ga yuqori bo'lgan (1-jadval).

Tola chiqishi 37%, tola uzunligi 39,4 mm, tola uzilish kuchi 4,6 g/kuch, metrik raqami 7215, nisbiy uzilish kuchi 31,7 g/kuch, mikroneyni 4,7 (2-jadval).

1-jadval

Andoza va yangi navning konkurs navlar sinovi natijalari
(X.Charieva, N.N.Ochildiev ma'lumoti, 2014-2015 yy)

№	Navlar	Sentabr oyi hosili, s/ga						Umumiy hosil, s/ga					
		Yillar				O'rtacha hosil,s/ga	Andozadan farqi, +-	Yillar				O'rtacha hosil,s/ga	Andozadan farqi, +-
		2006	2007	2008	2009			2006	2007	2008	2009		
1	Termiz-31 (andoza)	45,7	4,1	40,8	32,6	40,3	-	58,4	50,3	53,1	47,5	52,3	-
2	SP-1607	48,1	46,1	44,4	37,0	43,9	+3.6	67,0	58,7	61,7	53,8	60,3	+80

2-jadval

Andoza va yangi navning hosildorligi va tola texnologik sifati
(X.Charieva, N.N.Ochildiev, ma'lumoti, 2008 yil)

№	Navlar	Tup soni, ming/ga	Bir dona ko'sak vazni, g	Sentabr hosili, s/ga	Umumiy hosil, s/ga	Tola chiqishi, %	Tola uzunligi, mm	Tola uzulish kuchi, g.k	Metrik raqami	Nisbiy uzulish kuchi, g.k.teks	Mikroneyr
1	Termiz-31 (andoza)	89,3	3,5	45,7	58,4	36,4	39,2	4,1	6892	31,4	4,4
2	SP-1607	89,2	3,6	48,1	67,0	37,0	39,4	4,6	7215	31,7	4,2

5.TERMIZ DAVLAT NAVLARNI SINASH SHAXOBCHASI TAJRIBA NATIJALARI

G'ozaning yangi SP-1607 navi Termiz davlat navlar sinovi shaxobchasida 2007-2009 yillarda 12-15 ta yangi navlar bilan Termiz-31 navi andoza sifatida ekilib, sinovdan o'tkazildi. Davlat navlar sinovi natijalariga ko'ra g'ozaning Termiz-202 navi boshqa sinalayotgan va andoza Termiz-31 navidan bir ko'sakdagi paxta hosili yuqoriligi bilan farq qildi. Bir ko'sak vazni g'ozaning SP-1607 navida o'rtacha 3,2-3,5 gramm ekanligi isbotlandi. (3-jadval).

Unib chiqqandan pishguncha, ya'ni birinchi ko'sakning ochilguncha bo'lgan payt andoza va boshqa sinalayotgan navlarda 111-120 kunni tashkil etgani holda, g'ozaning Termiz-202 navida bu ko'rsatkich 110-115 kunni tashkil etdi va andoza hamda yangi Surxon-14, Surxon-100, Surxon-101, Surxon-16 va Termiz-49 navlaridan 2-5 kunga ertachi ekanligi Davlat navlar sinovi natijalarida aniqlandi.

G'ozaning navlarining eng muhim ko'rsatkichi bu paxta hosili bo'lib hisoblanadi.

2007 yilda yangi SP-1607 navidan sinov natijalariga ko'ra eng rekord paxta hosili yetishtirildi va paxta hosili 57,9 s/ga bo'lib, andoza navdan 5,0 s/ga va Surxon-103 navidan 11,0 s/ga, Surxon-14 va Surxon-100 navlaridan 6,8 s/ga va

Termiz-49 birinchi tip tola beradigan navdan 14,9 s/ga ko'p paxta hosili yetishtirildi.

2008 yilda ham yangi SP-1607 navi boshqa sinovdagi navlardan 1,5-11,8 s/ga ko'p hosil terib olindi.

2009 yil ma'lumotiga ko'ra Termiz-202 navi boshqa sinalgan va andoza navidan 4,0-9,2 s/ga qo'shimcha hosil olishni ta'minladi.

2007-2009 yillarda uch yillik o'rtacha paxta hosili ham yangi SP-1607 navining ertapishar va yuqori hosilli, bir ko'sak vazni yirik ekanligidan dalolat bermoqda.

3-jadval

Termiz Davlat navlarni sinash shaxobchasida ingichka tolali g'o'za navlari
hosildorligi, s/ga

(R.Ochilov ma'lumoti, 2007-2009 yillar)

№	Navlar	Bir ko'sak vazni,g			Andozadan farqi, +- Andozadan farqi, +-	Paxta hosili, s/ga			O'rtacha hosil,s/ga	Andozadan farqi	
		2007	2008	2009		2007	2008	2009		s/ga	%
1	Termiz-31 (andoza)	2,5	2,9	3,1	113-118	52,9	41,2	36,5	42,9	-	-
2	Termiz-40	-	2,9	3,2	-	-	38,2	38,6	38,4	-4,5	-10,5
3	Qarshi-9	-	2,7	-	-	-	35,0	-	35,0	-7,9	-18,5
4	Surxon-100	2,4	2,8	-	114-119	51,1	40,6	-	45,8	+2,9	+6,7
5	Surxon-14	2,6	2,8	3,0	115-120	51,1	47,6	37,3	45,3	+2,4	+5,6
6	Surxon-101	-	2,8	2,9	-	-	42,9	33,4	37,9	-5,0	-11,6
7	Termiz-202	3,2	3,2	3,5	110-115	57,9	49,0	42,6	49,8	+6,9	+16,1
8	Buxoro-7	-	2,8	-	-	-	39,4	-	39,4	-3,5	-8,1
9	Nafis	-	2,7	-	-	-	40,0	-	40,0	-2,9	-6,7
10	Surxon-16	2,8	2,9	-	111-116	46,9	39,6	-	43,2	+0,3	+0,7
11	Termiz-49	2,7	2,9	3,2	112-117	43,0		36,8	35,5	-7,4	-17,2
12	SP-1607	3,5	3,6	3,7	115-120	48,5	51,3	49,0	49,8	+6,9	16,1

Uch yil davomida andoza Termiz-31 navi o'rtacha 42,9 s/ga, Surxon-100 navi 45,8 s/ga, Surxon-14 navi 45,3 s/ga, Surxon-101 navi ikki yillik o'rtachasi 37,4 s/ga, Surxon-16 navi 43,2 s/ga, termiz-49 navi ikki yillik o'rtacha hosili 35,5 s/ga

va yangi SP-1607 navi o'rtacha 49,8 s/ga paxta hosil terib olindi. SP-1607 navi uch yillik o'rtacha paxta hosili 49,8 s/ga tashkil etdi. SP-1607 navi o'rtacha hosili andoza Termiz-31 navidan 6,9 s/ga yoki 16,1 foiz ko'p hosil berganligi to'liq isbotlandi.

Termiz davlat navlar sinovi natijalariga ko'ra yangi SP-1607 navi andoza va yangi sinalayotgan g'o'za navlaridan tezpisharligi, bir ko'sakdagi paxta vazni ko'pligi va serhosilligi to'liq isbotlandi.

Yangi SP-1607 navi bo'yicha Denov davlat nav sinovi shahobchasida ham eng serhosil va tezpisharligi aniqlandi.

2009 yilda shahobchada Surxon-100 navi 26,5 s/ga, Termiz-49 navi 27,5 s/ga, Termiz-40 navi 26,0 s/ga, Surxon-14 navi 27,5 s/ga, Surxon-101navi 28,0 s/ga, Surxon-16 navi 29,0 s/ga hosil terib olinganda yangi navidan yuqori hosil yetishtirildi. Termiz Davlat nav sinash dalalarida uch yillik ma'lumotlar bo'yicha SP-1607 navi barcha o'rganilgan navlardan va andoza navidan yuqori hosil berishi isbotlandi.

6. SP-1607 NAVIDAN YuQORI PAXTA HOSILI VA SIFATLI TOLA YeTISHIRISH AGROTEKNOLOGIYASI

Qishloq xo'jalik ekinlarini sinash shaxobchalaridan olingan natijalar (2020-2021 yillar) ingichka tolali g'o'zaning SP-1607 va respublikaning quyidagi shaxobchalarida sinovdan o'tkazilgan. Shaxobchalar: Qarshi, Mirishkor, Xatirchi, Sherobod va Termiz nav sinash uchastkalarida o'tkazilgan tajribalar natijalariga ko'ra, o'rtacha xosildorligi 30,5-38,9 s/ga, tola hosili o'rtacha 10,2-12,9 s/ga, o'suv davri 120-143 kun, bir ko'sakdagi paxta vazni 3,1-3,4 gramm, paxtadan tola chiqishi – 30,2-35,8 (4-jadval).

Ushbu nav Qarshi nav sinash shaxobchasida, standart nav Surxon-16 ga nisbatan 1,3 s/ga hosil, tola hosili 0,2 s/ga, o'suv davri bir kunga ko'p, bir chanoqdagi paxta hosili standartga teng va tola chiqishi 0,6% ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Mirishkor nav sinash shaxobchasida standart nav Surxon-16 ga nisbatan paxta hosili 1,24 s/ga, bir ko'sakdagi paxta hosili 0,2 grammga ko'p, tola hamda o'suv davrida farqi yo'q, tola chiqishida 1,4 foiz ustunligi aniqlandi.

Navoiy viloyatidagi Xatirchi nav sinash shaxobchasida standart nav Surxon-16, paxta hosilida farqi yo'q, tola hosili 0,2 s/ga yuqori, bir ko'sak vaznida 0,6 gramm, tola chiqishida 0,6 foizga ustunligi bilan farqlanishi aniqlandi.

Sherobod nav sinash shaxobchasida standart Surxon-14 va SP-1607 navida paxta hosildorligi va tola hosilida farqi sezilmadi, o'suv davrida 7-kunga ertaki, bir ko'sakdagi paxta hosili 0,5 grammga ko'p va tola chiqimida farqi kuzatilmadi.

4-jadval

Respublikada qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash shaxobchalarida olingan natijalar

T/r	Nav sinash uchastkalari	Sinash yillari	Hosildorlik, s/ga		O'suv davri, (kun)	Bir ko'sakdagi paxta, (gr.)	Tola chiqimi, (%)
			paxta	tola			
1.	Qarshi	2020	39,9	12,9	127	3,4	33,2
	Surxon-16		-1,3	-0,2	-1,0	0,0	0,6
2.	Mirishkor	2020	32,8	11,7	118	3,4	35,8
	Surxon-16		-1,2	0,0	0	0,2	1,4
3.	Xatirchi	2020	30,5	10,2	143	3,2	33,3
	Surxon-16		0,0	0,2	-2	-0,6	0,6
4.	Sherobod	2020	37,0	14,2	120	5,7	30,2
	Surxon-16		0,0	0,0	7	-0,5	0,0
5.	Termiz	2020-2021	30,8	12,6	124	3,1	34,1
	Surxon-16		5,7	2,5	-2	0,8	1,5

Termiz nav sinash shaxobchasida standart nav Surxon-14 yangi SP-1607 navlarini solishtirib o'rganilganda quyidagilar aniqlandi. Paxta hosili standart navdan 5,7 s/ga va tola hosili 2,5 s/ga ustun bo'lib, o'suv davri 2-kunga ertaki, bir chanoqdagi paxta hosili 0,8 grammga va tola chiqishi 1,5% ga yuqori bo'lishi isbotlandi.

Viloyatda ingichka tolali g'o'za navlari 2021 yilda 5832 gektar maydonga, 2022 yilda 12383 gektar maydonga va 2023 yilda 18000 gektar maydonga ekilgan. 2021 yilda viloyat bo'yicha 17402 tonna, 2022 yilda 20297 tonna va 2023 yilda

72497 tonna hosil yetishtirildi va paxta hosidorligi 2021 yilda 29,8 s/ga va 2023 yilda 40,3 s/ga paxta hosili yetishtirildi.

2020 yilda g'ozaning Termiz-202 navi Angor tumanidagi "Zamin-Angor" MChJ Klasterida 2000 ga va 2023 yilda 4000 ga, Jarqo'rg'on tumanidagi "Termiz-Jayhun" MChJ Klasterida g'ozaning SP-1607 navi 2021 yilda 800 ga va 2023 yilda 2600 ga, Termiz tumanidagi "INDENUM" MChJ Klasterida g'ozaning Termiz-202 navi 700 ga, Sherobod tumanidagi "Surxondaryo Agroxizmat" MChJ Klasterida g'ozaning SP-1607 navi 2021 yilda 869 ga va 2022 yilda 2500 gektar maydonga, Muzrabod tumanidagi "INDENUM" MChJ Tekstil Klasterida 2023 yilda Termiz-202 navi 300 ga va SP-1607 navi 1100 gektar maydonga ekildi.

2023 yilda viloyatda ingichka tolali g'oz navlari 18000 ga maydonga ekilib, shu jumladan g'ozaning Termiz-202 navi Angor tumanida 3000 ga, Muzrabod tumanidagi "INDENUM" MChJ Tekstil Klasterida 1850 ga, Termiz tumanidagi "INDENUM" MChJ Klasterida 950 ga, Sherobod tumanidagi "Surxondaryo Agroxizmat" MChJda 4150 gektar maydonga ekildi. 2023 yilda Angor tumanidagi "Zamin-Angor" MChJ Klasterida Termiz-202 navi 3000 ga maydondan 40,7 s/ga, Muzrabod tumanidagi "INDENUM" MChJ Tekstil Klasterida 1850 gektar maydondan 39,8 s/ga, Termiz tumanidagi "INDENUM" MChJ Klasterida 950 ga maydonning har gektaridan 41,1 s/ga, Sherobod tumanidagi "Surxondaryo Agroxizmat" MChJda 4150 ga maydondan 39,6 s/ga paxta hosili yetishtirildi. 2023 yilda ingichka tolali g'ozaning SP-1607 navi Jarqo'rg'on tumanidagi "Termiz-Jayhun" MChJ Klasterida 3750 ga maydonga ekib, o'rtacha 40,3 s/ga, Qiziriq tumanidagi "Surxon Cotton" tekstil MChJ Klasteri 1500 gektardan 39,5 s/ga, Qumqo'rg'on tumanidagi "Termiz-Jayhun" MChJ tekstil klasteri 1730 gektardan o'rtacha 41,4 s/ga, Muzrabod tumanidagi "INDENUM" MChJ Tekstil Klasterida 970 ga maydondan o'rtacha 39,8 s/ga paxta hosili, viloyat bo'yicha ingichka tolali paxta 18000 ga maydondan o'rtacha 40,2 s/ga hosil yetishtirildi.

2023 yilda ingichka tolali g'oz navlaridan yuqori avlodli urug' tayyorlash bo'yicha viloyat tumanlarida va fermer xo'jaliklarida ekilgan maydon, nav, avlodi va kutiladigan urug'lik paxta bo'yicha ma'lumot (5-jadval).

Qiziriq tumanidagi "Surxon Cotton" tekstil MChJ Klasteri 290 ga maydonda SP-1607 navi 290 ga maydondagi R₂ avlodi ekilgan, kutiladigan urug'lik paxta 348 tonna, Jarqo'rg'on tumanidagi quyidagi fermer xo'jaliklarida urug'lik paxta yetishtirildi. "O'tkir ko'z" fermer xo'jaligida 29,7 ga, SP-1607 navi, avdodi R₁ va urug'lik paxta 35,6 tonna, "Jarqo'rg'on" fermer xo'jaligi maydoni 37,4 s/ga, nav SP-1607, avlod R₁ va urug'lik paxta kutiladi 44,9 tonna, "Surxon-sabosi" fermer xo'jaligida maydon 20,0 ga, nav SP-1607, avlodi R₁ va kutiladigan urug'lik paxta-24,0 tonna, "Oltin Guliston-Baraka" fermer xo'jaligida maydoni 20,1 ga, SP-1607 navi, avdodi R₁ va urug'lik paxta kutiladi, 24,1 tonna, "Magnat Agrota'minot" fermer xo'jaligida maydoni 72,6 ga navi SP-1607, avdodi R₁ va kutilayotgan urug'lik paxta, 87,1 tonna "Abduxalil fayz-baraka" fermer xo'jaligi maydoni 19,0 ga navi SP-1607, avdodi elita, kutiladigan urug'lik paxta 22,8 tonna, "Imkoniyat-Hamkor" fermer xo'jaligida maydon 26,5 ga, navi SP-1607, avdodi R₁ va kutiladigan hosil 31,8 tonna, "Samandar Jo'raevich" fermer xo'jaligida maydoni 20,0 ga navi SP-1607, avdodi R₁ va kutiladigan paxta hosili 24,0 tonna, "Mirkamol Dostonovich" fermer xo'jaligida 48,6 ga maydoni, navi SP-1607, avdodi R₁ va kutiladigan hosil 58,3 tonna, "Xavoxon Abdullaeva" fermer xo'jaligida 28,9 ga maydoni, navi SP-1607, avdodi R₁ va kutiladigan hosil 34,7 tonna, "Dolzarb-Kamar" fermer xo'jaligida 29,0 ga maydoni, navi SP-1607, avdodi R₁ va kutiladigan hosil 34,8 tonna, "Botir Saidovich" fermer xo'jaligida 8,9 ga maydoni, navi SP-1607, avdodi R₁ va kutilayotgan hosil 34,8 tonna, va "Soatmurod O'roz" fermer xo'jaligida 31,0 ga maydoni, navi SP-1607, avlodi super elita va kutilayotgan hosil 49,6 tonnani tashkil etadi.

Ko'p yillik tajribada tuproqning tabiiy unumdorligi hisobiga har gektar maydondan 16,2 s/ga, faqat ma'danli o'g'itlar qo'llanilganda 30,3 s/ga, tuproqqa ma'danli va mahalliy o'g'itlar birga ishlatilganda 33,0-36,0 s/ga, almashlab ekishda uch yillik bedadan so'ng 39,5 s/ga, g'alla-mosh-g'oz navbatlab

ekilganda birinchi yili 32,5-35,0 s/ga paxta hosili yetishtirildi. Bu ma'lumot navning potensial hosildorligi yuqori ekanligidan dalolat beradi (7-jadval).

2009 yilda O'zPITI ning "Do'stlik" birlamchi urug'chilik xo'jaligida o'tkazilgan ishlab chiqarish tajribasida g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosil to'plashi o'simlikka NPK 250,175,125kg/ga qo'llanib, sug'orish 70-75-60 %, ChDNS ga nisbatan namlikda o'tkazilganda 65-70-60 % namlik va NPK 200,140,100 kg/ga ko'ra ancha jadal o'sishi aniqlandi (7-jadval).

G'o'zaning yangi SP-1607 navidan 39,6-42,3 s/ga paxta hosili yetishtirish uchun g'o'zani ChDNS ga nisbatan 70-75-60% namlikda sug'orish va NPK 250,175,152 kg/ga o'g'it qo'llash hamda g'o'zani kamida 2 marta sharbat bilan sug'orish tavsiya etiladi.

2009 yilda g'o'zaning SP-1607 navi O'zPITI Surxondaryo filialida 4,5 ga maydonga ekilib, 33,2 s/ga va O'zPITI ning "Do'stlik" tajriba dalasida 62 ga maydonga ekilib har gektar maydondan 34,5 s/ga paxta hosili yig'ishtirib olindi va yetarli miqdorda super elita va birinchi avlod urug'lari jamg'arildi.

Viloyatda ingichka tolali paxta xomashyosini yetishtirish ko'rsatgichlari
(2021-2023 yillar)

№	Tuman nomi	Klaster	Ingichka tolali g'oz navi nomi	Ekilgan maydon, ga			Olingan hosil, tonna			Hosildor lik, s/ga		
				2021	2022	2023	2021	2022	2023	2021	2022	2023
1	Angor	Zamin Angor, Angor Surxon g'ururi	Termiz-202	4,0	2000,0	4000,0	9,0	6020,0	17193,0	24,0	30,0	43,0
			Termiz-208	6,0			11			35,0		
2	Jarqo'rg'on	Termiz-Jayhun	S-6577	76,0								
			SP-1607		400	1304		1132	5558		28,0	43,0
3	Qiziriq	Surxon-Cotton	SP-1607	800	600	2600	1137	900		14,0	15,0	39,0
4	Termiz	Indenim	Termiz-202	40		700	106		2778	26		40,0
			SP-1607	23	200		89	370		40	19	
5	Sherobod	Surxondaryo- Agroxizmat	SP-1607	869	2500		2852			33	19	36,0
		Gortres MChJ	SP-1607			1800				32	19	40,0
6	Muzrabod	Muzrabot	SP-1607			1100			4334			39,0
		Indenim	Termiz-202			900			3546			39,0
Jami:				5832	12383	18000	17402	20297	72499	29,8	22,4	40,3

Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtiruvchi sub'ektlarda 2023 yil hosili uchun ekilgan g'ozaning nav va avlodi, kutiladigan urug'lik chigit miqdori to'g'risida ma'lumot

№	Klaster fermer xo'jaliklar nomi	Urug'lik paxta ekilgan maydon, ga	G'oz navi	Avlodi	Kutiladigan yalpi hosil, t	Kutiladigan urug'lik paxta, t
1	Qiziriq tumani Surxon-Cotton	290	SP-1607	R ₂	870,0	348,0
2	O'tkir ko'z	29,7	SP-1607	R ₁	89,1	35,6
3	East sveet Trnit	26,6	SP-1607	R ₁	79,8	31,9
4	Jarqo'rg'on	37,4	SP-1607	R ₁	112,2	44,9
5	Jarqo'rg'onlik Jamshid	31,8	SP-1607	R ₁	95,4	38,2
6	Surxon-Sabosi	20,0	SP-1607	R ₁	60,0	24,0
7	Oltin-Guliston- Baraka	20,1	SP-1607	R ₁	60,3	24,1
8	Magnat- Agrota'minoti	72,6	SP-1607	R ₁	217,8	87,1
9	Abduxalil-Fayz- Baraka	19,0	SP-1607	Elita	57,0	22,8
10	Imkoniya-Hamkor	26,5	SP-1607	R ₁	79,5	31,8
11	Samandar Jo'raevich	20,0	SP-1607	R ₁	59,9	24,0
12	Mirkamol Dostonovich	48,6	SP-1607	R ₁	145,8	58,3
13	Havoxon Abdullaeva	28,9	SP-1607	R ₁	86,7	34,7
14	Dolzarb-Kamar	29,0	SP-1607	R ₁	87,0	34,8
15	Botir Saidovich	8,9	SP-1607	R ₁	26,7	10,7
16	Soatmurod O'roz	31,0	SP-1607	Super elita	123,9	49,6

7-jadval

Muttasil g' o' za, ekinlarni navbatlab va almashlab ekishning paxta hosiliga ta' siri,
(M.Tadjiev va K.Tadjiev ma' lumoti, SP-1607 navi, 2009 yil)

№	Variantlar	Fenologik kuzatish 1.09.09				Paxta hosili, s/ga		O'rtacha hosil, s/ga	Nazoratdan farqi, s/ga	
		Bo'yi, sm	Ko'saklar soni, dona	Sh.j. ochilgani, dona	Ochilgani, %	Sentabr hosili, s/ga	Umumiy hosil, s/ga		Birinchida n	Ikkinchida n
1	Muttasil g' o' za (o' g' itlanmagan)	75,0	14,0	11,9	85,0	16,2	16,2	16,2	-	-
2	Muttasil g' o' za+NPK (200,140,100 kg/ga)	89,0	15,6	10,9	65,0	29,3	30,3	30,3	14,1	-
3	Muttasil g' o' za+NPK (200,140,100 kg/ga va 10 t/ga go' ng)	96,0	16,0	10,0	61,0	31,5	33,8	33,0	16,8	2,7
4	Muttasil g' o' za+NPK (200,140,100 kg/ga va 20 t/ga go' ng)	99,5	16,6	10,1	61,0	36,3	36,0	36,0	19,8	5,7
5	Almashlab ekish (1:2:3:1:2) , 2009 yilda g' o' za bedadan so' ng birinchi yili	104,0	17,1	10,2	60,0	35,9	39,5	39,5	23,3	9,2
6	Almashlab ekish (3:6) g' o' za bedadan so' ng 5 yili)	95,4	15,9	11,3	71,2	32,7	33,7	33,7	17,5	3,4

Ye= 0,39 s/ga R= 1,73 %

8-jadval

Har xil sug' orish va oziqlantirish me' yorlarining paxta hosiliga ta' siri, s/ga
(G.A.Qurbonova, M.Tadjiev, N.N.Ochildiev ma' lumoti, 2009 yil)

№	Variantlar			Terimlar			Qaytariqlar			O'rtacha hosil, s/ga	Nazo-ratdan farki, +, -,
	G' o' za navi	O' g' itlar me' yorlari, NPK kg/ga	Sug' orish tizimi ChDNS ga nisbatan, %	17.XII	10.X	20.X	I	II	III		
1	Termiz- 202	200,140,100	65-70-60	28,5	3,8	2,0	35,0	35,1	35,2	35,1	-
2	Termiz- 202	200,140,100	70-75-60	27,3	6,1	4,0	37,2	37,4	37,6	37,4	+2,3
3	Termiz- 202	250,175,125	65-70-60		7,0	6,1	39,5	39,6	39,7	39,6	+4,5

4	Termiz-202	250,175,125	70-75-60	26,0	8,9	7,1	42,0	42,3	42,6	42,3	+7,2
---	------------	-------------	----------	------	-----	-----	------	------	------	------	------

Boshqa bir tajribada g'ozaning yangi SP-1607 navidan yuqori hosil yetishtirish uchun sug'orishni ChDNS ga nisbatan 70-70-60 yoki 70-75-60 foiz namlikda o'tkazish, oziqlantirishni 200-250 kg/ga azot, 140-175 kg/ga fosfor va 100 kg/ga kaliy o'g'itlarini qo'llash va tup sonini tuproq unumdorligiga ko'ra 120-130 ming/ga saqlash hamda g'ozani chilpishni tuproq unumdorligi va tup son qalinligini hisobga olib, o'simlikda 15-16 hosil bo'g'ini paydo bo'lishi bilan o'tkazishni tavsiya etiladi. G'ozada defoliatsiyasini yumshoq ta'sir etuvchi Avguron-Ekstra preparati bilan 65-70 foiz ko'saklar ochilganda har gektar maydonga defoliantni 150-200 gramm hisobida sepishni va Suyuq xlorat mangiy defoliantini g'ozada 70-75 foiz hosil ochilganda 7-8 l/ga me'yorlarda qo'llash tavsiya etiladi.

Mashinalar yordamida paxta hosilini terishni 80-90 foiz barg to'kilganda va paxta hosilining 80-85 foizi ochilganda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. INGICHKA TOLALI G'O'ZA NAVLARI ISHLAB CHIQRISH SINOV NATIJALARI

2022 yilda amalda viloyatda ingichka tolali g'ozadan 24,3 s/ga paxta hosili yetishtirildi. Termiz tumanida Termiz-208 navi 31,8 s/ga, SP-1607 navidan 33,8 s/ga, ST-1651 navidan 28,0 s/ga va viloyat bo'yicha 8596 tonna paxta xomashyosi, Angor tumanida Termiz-202 navidan 1396 gektar maydondan 30,1 s/ga ST-1651 navidan 78 gektardan 29,7 s/ga, jami 232 tonna paxta xomashyosi yetishtirilganligi aniqlandi. Ilg'or fermer xo'jaliklarida ingichka tolali g'ozaning hosildorligi yanada yuqori bo'ldi. Ingichka tolali g'ozaning SP-1607 navi qo'shqator usulida ekilib, har gektar maydonga 160-180 ming/ga tup son parvarishlab katta maydondan (1399ga) o'rtacha 30,1 s/ga paxta hosili terib olindi. Paxta to'qimachilik klasteriga qarashli oilaviy pudratchilardan Mirzaev Abdulxamidga birlashtirilgan 213 gektar maydondan o'rtacha 37,0 s/ga, shundan qo'shqatorlab ekilgan 70 gektar maydondan 40-45 s/ga, Tursaotov Muzaffar 41 gektardan 36,1

s/ga, Eshboev Juma 49 gektar maydondan 36,0 s/ga paxta hosili yetishtirdilar (9-jadval).

2022 yilda ingichka tolali g'ozaning oltita navi ekilgan: Bu navlar, SP-1607, Termiz-202, Termiz-208, Surxon-14, Surxon-103 va ST-1651 navlari bo'lib, amalda 3632 gektar maydonga ekilib, o'rtacha 24,3 sentnerdan hosil yetishtirilib jami 8598 tonna ingichka tolali paxta yetishtirilgan.

Ekilgan g'oz navlarining hosildorligi quyidagicha: SP-1607 navi 1184 gektar maydonga ekilib o'rtacha 20,5 s/ga, Termiz-202 navi 1681 gektar maydonga ekilib, har gektar maydondan o'rtacha 27,3 s/ga, Termiz-208 navi 1 gektar maydonga ekilib, 31,8 s/ga, ST-1651 navi 79 gektarga ekilib, 29,7 s/ga, Surxon-14 navi 408 gektar maydondan 24,7 s/ga, Surxon-103 navi 178 gektar maydonga ekilib, har gektar maydondan 19,0 s/ga paxta hosili yetishtirilgan.

9-jadval

2022 yilda tumanlarda paxta hosili uchun ekilgan ingichka tolali
G'oz navlari va hosildorligi bo'yicha 2022 yil 4 noyabr holatiga ma'lumot

№	Tumanlar nomi	G'oz navlari	Reja			Amalda		
			gektar	s/ga	tonna	gektar	s/ga	tonna
1	Angor	Termiz-202	1396	33,8	4725	1396	30,1	4206
		ST-1651	76	34,0	265	78	29,7	232
2	Bandixon	Surxon-14	316	36,7	1154	318	24,2	769
3	Jarqo'rg'on	SP-1607	544	36,7	1996	544	28,3	1540
		Surxon-14	90	37,7	340	90	26,8	241
4	Muzrabot	SP-1607	370	34,4	1273	362	12,0	435
		Termiz-202	188	33,0	622	188	10,4	196
5	Termiz	Termiz-202	186	33,0	622	188	10,4	176
		Termiz-208	2	32,0	5	1	31,8	5
		SP-1607	26	32,0	83	19	33,8	64
		ST-1651	1	32,0	3	1	28,0	3
6	Sherobod	Surxon-103	178	32,3	577	178	19,0	339
Viloyat bo'yicha:			5462	29,4	16065	3532	24,3	8596

G'ozaning Termiz-202 navi katta maydonga ekilib, 27,3 s/ga, Angor tumanida ekilgan Termiz-202 navi 1396 gektardan 30,1 s/ga hosil yetishtirilib, hosildorlikda birinchi o'rinni egalladi. Termiz-208 navi kichik maydondan 31,8 s/ga, ST-1651 navi 79 gektardan 29,7 s/ga hosil yetishtirildi. Ushbu ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan Termiz-202, Termiz-208 SP-1607 va ST-1651 navlari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotekhnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Surxon-14, Surxon-103 navlaridan hosildorligi bilan navlar salohiyatini ko'rsatib turibdi.

2021-2024 yillarda Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba xo'jaligida dalalarida ingichka tolali g'oz navlarini tomchilatib sug'orish bo'yicha A.B.Donaboev tadqiqot ishlarini amalga oshirib, ertaki, yuqori hosil yetishtirish bilan birga resurstejamkor texnologiya asosida suv va oziqa tejalishini amalda isbotladi.

8. XULOSA VA TAVSIYALAR

2016-2024 yillarda g'ozaning istiqbolli SP-1607 navi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar, Davlat nav sinovi shahobchalari ma'lumotlari va ishlab chiqarish sinovlari natijalariga asoslanib quyidagicha xulosa va tavsiyalarni qo'llash mumkin:

1. G'ozaning yangi SP-1607 navi Surxon-Sherobod vohasining har xil tuproq-iqlim sharoitlarida jadal o'sishi, rivojlanishi va yuqori tola yetishtirish aniqlandi. Ingichka tolali navlar orasida eng yuqori hosilli nav Termiz-202, keyin SP-1607, Termiz-208 va ST-1651 navi ekanligi joriy ishlab chiqarish sinovi natijalariga o'z tasdig'ini topdi.

2. Navning tolasi oq rangli bo'lib boshqa navlardan farq qiladi, xo'jalik ko'rsatkichlari va tola sifati halqaro andoza talablariga to'liq javob beradi.

3. SP-1607 navini viloyatning janubiy tumanlari sharoitida dalani ekish oldidan sug'orib, dala yetilishi bilan egatlar uzunasiga chopiq traktorlari yordamida borona bosilib, dorilangan chigitlar ekish oldidan namlanib, dimlanib pushtalar ustiga ekiladi va tuproqda namlik yetarli bo'lganligi hamda havo haroratining ko'tarilishi bilan ekilgan chigitlardan bir hafta ichida to'liq ko'chatlar unib chiqadi. Viloyatning shimoliy tumanlari sharoitida ham chigit pushtalar ustiga ekish oldidan boronalar uzunasiga bosilib ekilsa, chigit tuproqning tabiiy namligi hisobiga qisqa paytlarda unib chiqadi. Pushta olinmagan dalalarga chigit ekish oldidan dala tekislanib mola va boronalar birga bosilgan va sifatli tayyorlangan dalalarga chigit ekishni eng qulay muddatlarda ekish tavsiya etiladi.

4. Chigit ekish muddati dalada yetarli namlik bo'lgan va tuproqning 10 sm chuqurlikda harorat 12-14 °S daraja bo'lib, havo harorati barqarorlashgan payt hisoblanadi.

Chigit ekishning eng qulay muddati Surxon-Sherobod vohasining janubiy tumanlari ekstremal tuproq-iqlim sharoitlarida 20 martdan 10 aprelgacha va shimoliy tumanlari sharoitida 1-15 aprelgacha bo'lgan payt hisoblanadi. Bu muddat yilning ob-havo sharoitiga qarab, 5 kunga u yoki bu tomonga siljishi

mumkin. 2008 yilning quruq va issiq bahor faslida chigit ekishning eng qulay 20-martdan 10-aprelgacha bo'lgan payt bo'ldi.

5.O'tkazilgan ko'p yillik tajribalar va ishlab chiqarish tahlillari natijalariga ko'ra SP-1607 navi chigiti moydor va yirik (125-130 gramm) bo'lganligi tufayli chigitning dala unuvchanligi yuqori, boshqa navlardan ko'chati 1-2 kunga ilgari unib chiqadi va har qanday ob-havo va tuproqlar sharoitida ham to'liq va qiyg'os ko'chat unib chiqishini ta'minlaydi. Ushbu navning chigiti yirik va baquvvat bo'lganligi uchun boshqa g'o'za navlariga nisbatan qisqa muddatli qatqaloqlarni ham yengib chiqa oladi.

6.O'tkazilgan tadqiqotlar va ishlab chiqarish sinovlari natijalariga ko'ra, SP-1607 navi ekilayotgan boshqa g'o'za navlaridan 2,5-4,0 s/ga yuqori hosil yetishtirishni ta'minlaydi.

7.Yangi SP-1607 navini barg sathi nisbatan kamroq va barg yaproqlari yupqa bo'lganligi uchun boshqa g'o'za navlaridan (Buxoro-6) defoliantlar sarfi kamida 15-20 foiz kam bo'lishi aniqlandi. Hosilning ochilishi bilan SP-1607 navi bargi tabiiy holda to'kila boshlaydi va qolgan barglari rangi qizarib ketadi va kam me'yorlardagi defoliantlar yordamida yengil to'kiladi.

8. SP-1607 navi tupi nulevkasimon shaklida bo'lganligi tufayli qator oralari 60 va 90 santimetr kenglikda ekishga juda moslashgan, o'simligi g'ovlab ketmaydi, mashina terimiga juda mos keladi. Dalalarda tup soni tig'is qoldirilib ekilsa, to'kilgan hosilini terishga hojat qolmaydi.

9. SP-1607 navidan yuqori hosil yetishtirishda g'o'zaning ko'chat qalinligiga alohida e'tibor berish zarur.Unumdor tuproqlarda 120-130 ming/ga, o'rta unumli tuproqlarda 170-180 ming, kam unumli, ball boniteti past (35-45 ballgacha) yengil qumoq tuproqlarda 145-150 ming/ga tup o'simlik har gektar maydonga qoldirish tavsiya etiladi. Kam unumli tuproqlarda asosiy hosil tup son hisobiga to'planishi to'liq isbotlangan. G'o'za qo'shqator usulida ekilganda har gektar maydonga 160-180 ming/ga tup son parvarishlash tavsiya etiladi.

10. Yengil tuproqlar, qumoq va shag'al qatlami yuzaki tuproqlar hamda o'rta mexanik tarkibli yerlarda SP-1607 navi g'ozalarini gullashgacha bir marta sug'orish va oziqlantirish tavsiya etiladi.

Birinchi va ikkinchi sug'orishni har egatdan emas, balki egat oralatib olingan sayoz egatlar yordamida yengil sug'orish tavsiya qilinadi. Bu usulda suv ancha tejaladi, o'simlik g'ovlab ketmaydi va dala kam zichlashadi, sug'orishdan samarali foydalaniladi. G'ozaning yoppasiga gullash va hosil to'plash davrida sug'orishni yengil tuproqlarda barcha egatlar orqali sug'orishni tavsiya etiladi. Sug'orishni yengil tuproqlardan boshlab, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda tugallash zarur. Og'ir mexanik tarkibli tuproqlarni sug'orish 1-3-1; 1-3-2; va o'rta tuproqlarni 1-4-1; 1-4-2 va yengil tuproqlarni 1-5-2; 2-5-2 kabi sexamalarda g'ozaning suvga talabini inobatga olgan holda o'tkazish zarur. SP-1607 navi intensiv tipdagi nav bo'lganligi uchun yoppasiga gullash hosil to'plash davrida chanqashiga yo'l qo'ymang, aks holda to'plangan ertachi hosilning ko'p qismi to'kilib ketadi. Sug'orishni ChDNSga nisbatan 70-70-60 va 70-75-60% namliklarda sug'orish tavsiya etiladi. G'ozaning SP-1607 navi tomchilatib sug'orishga mos keladi, hosili ertaki bo'lib, yuqori hosil beradi, tolaning sifati yaxshilanadi, ishlab chiqarish rentabelli bo'ladi.

11. SP-1607 navi yozning jazirama issiq haroratlari, garmisel shamollarga va sho'rga nisbatan chidamli nav bo'lib hisoblanadi. Bu fikrni 2010-2019 yillarda o'tkazilgan tajribalar va ishlab chiqarish sinovlari to'liq tasdiqladi.

SP-1607 navi intensiv tipdagi nav bo'lganligi uchun oziqaga talabi kuchli bo'ladi. Ma'danli o'g'itlarning o'rtacha me'yori 250 kg/ga azot, 175 kg/ga fosfor va 125 kg/ga kaliyli o'g'itlar va qo'shimcha ravishda 10-20 t/ga go'ng yoki go'ng-bentonit komposti qo'llanilsa, paxta hosili 40-45 s/ga, hatto undan ham ko'p paxta hosili yetishtirish to'liq isbotlangan.

Yuqorida belgilangan ma'danli o'g'itlarni ekish bilan shonalash va gullash davrida qo'llash tavsiya etiladi. 2020-2024 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar va ishlab chiqarish sinovlari natijalari shuni ko'rsatdiki, ertachi ekilgan g'ozalarni oxirgi azotli o'g'itlar bilan oziqlantirishni 20-25 iyun sanalarida tugallash tavsiya

etiladi. Erta oziqlantirilgan g'oz'a maydonlari o'simlikda ertachi va mo'l paxta hosili to'plash bilan birga hosilning kam to'kilishini ta'minlaydi.

Ingichka tolali g'oz'a navlaridan ertaki va yuqori hosil yetishtirishda stimulyatorlarni barg orqali oziqlantirish, suspenziyani 2-3 marta qo'llash orqali paxta hosili 4-5 s/ga qo'shimcha hosil olishni ta'minlashi aniqlangan.

G'oz'aning gullash va hosil to'plash paytlarida sug'orishni sharbat usulida tashkil etish, paxta hosilini mo'l bo'lishini va to'plangan hosilning ko'proq saqlanib qolishini hamda g'oz'aning pastki, o'rta va tepa yaruslarida ko'saklarning ko'proq to'planishini ta'minlaydi. Ushbu g'oz'a navidan ertachi, yuqori paxta hosili va sifatli tola yetishtirish maqsadida g'oz'aning hosil to'plash davrida sug'orishni sharbat usulida o'tkazishni tavsiya etiladi. Ingichka tolali g'ozadan yuqori va ertaki hosil to'plashda o'simliklarni tomchilatib sug'orish eng muhim agrotexnik tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi. G'ozani tomchilatib sug'orishda suv 40-50 foizga tejalishi bilan, o'g'it va tuproq namligidan o'simlik samarali foydalanadi.

Hurmatli fermer xo'jaliklari va to'qimachilik klasterlari rahbarlari g'ozani tomchilatib sug'orishga alohida e'tibor berib, ilg'or va samarali usul asosida sug'orishni ingichka tolali g'oz'a navlariga keng joriy etish tavsiya etiladi.

12. Hozirgi paytda dunyoda global isib ketishi sharoiti, borgan sari kuchaymoqda, daryolar, ko'llar, hatto okeanlar suvi kamayib ketmoqda. Jahonda har yili qurg'oqchilik, hatto Yevropa mamalakatlarida ko'chayib bormoqda, qishloq xo'jalik ekinlari o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga jiddiy zarar keltirmoqda. Sersuv yillar bo'lishini kutmang, tezroq resurstejamkor texnologiyalarni joriy eting. Boriga baraka deb ishlashimiz va sharoitga moslashib yashashimiz, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish uchun kurashib faoliyat ko'rsatib ishlashimiz barchamizning burchimiz.

Xirmonlaringizga qut-baraka tilaymiz.

9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avliyoqulov A, Tadjiev M –Surxondaryo viloyatida ekilayotgan g‘o‘za navlari va ulardan yuqori hosil yetishtirish agrotexnikasi yuzasidan tavsiyalar”, Termiz-1992 y. “Jayxun” nashriyoti.Xajmi 4,3 b.t.
2. Avliyoqulov A.E. Tadjiev M –“Intensiv texnologiya asosida ertachi, yuqori va sifatli tola yetishtirish” Toshkent,1993 yil. Xajmi 4,3 b.t.
3. Avliyoqulov N.E. Tadjiev M va boshqalar G‘o‘zaning birinchi tip tola beradigan Termiz-49 navidan yuqori hosil yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha tavsiyanomalar.Termiz 2008, b.21.
4. Batalov M va boshqalar- “Buxoro-6 va Buxoro-8 g‘o‘za navlarini yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha tavsiyalar.Buxoro-2004 y, b 15.
5. Boltaev S.M. Tadjiev M va boshqalar- Noan‘anaviy agrorudalar bentonit-go‘ng kompostini paxtachilikka qo‘llash samaradorligi bo‘yicha tavsiyanoma. Termiz 2008 b.22.
6. Jo‘raev B, Tojiev M-Surxondaryoda g‘o‘za agrotexnikasi va uning urug‘chiligi”, Termiz-1992 yil.Hajmi 4,3 b.t.
7. Muxammadiev B-“Shirkat va fermer xo‘jaliklarida organik hamda mineral o‘g‘itlardan foydalanish.Toshkent, 2005 yil, b 18.
8. Nazarov R, Axmedov E, Qo‘ziboev Sh, Boboev Ya, Omonturdiyev A- Paxtachilikni rivojlantirish istiqbollari, Toshkent,2005 yil, b.t 3,5.b.35
9. Nazarov R, Axmedov J, Jo‘raev B, Yangiboev A, Tadjiev M boshqalar “Fermer xo‘jaliklari rahbarlari va mutaxassislariga paxtadan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar”. Termiz-2006 yil, b.60-69.Xajmi 4,9 b.
10. Nazarov R, Omonturdiyev A, Axmedov J,Qo‘shaliyev A O‘zbekiston qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestriga kiritilgan va istiqbolli g‘o‘za navlarini yetishtirish agrotexnikasi.Toshkent, 2007 yil b.55.
11. Niyozaliev B.Ch, Qodirxo‘jaev M. Xaitbaev X.X, Qadirov A.E, Vodno-pitatelnyy rejim rayonirovannogo sorta «Akdarya» i perspektivnyy sort «Gulsara» Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya, Tashkent, UzNIIX,2003 g.st.57-59

12. Raxmatov.I, Choriev Sh, Jumaev Sh, Bo'riev Ya, Rajaboev T. Fermer xo'jaligi rahbarlariga g'o'za parvarishi bo'yicha tavsiya". Qarshi, 2005 yil, b.24

13. Tadjiev M, Qurbonova G, Tojiev K, Xo'jmanov O "Oziqa va suv me'yorlarining g'o'za navlari o'sishi, rivojlanishi va hosil to'plashiga ta'siri, Respublika ilmiy amaliy konferensiya to'plami. 20-21 aprel, 2006 yil, Termiz 2006 yil, 158-160 -b.

14. Tadjiev M, Yangiboev A va boshqalar "G'o'zaning Buxoro-102 navidan har qanday ob-havo sharoitida mo'l paxta hosili va sifatli tola yetishtirish agrotexnologiyasi" bo'yicha tavsiyalar Termiz, 2008 b.24.

15. Xasanov B.O., Xo'jaev Sh.T, Hamroev A.Sh. –Surxondaryo viloyatida g'o'za va g'allani zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish haqida tavsiyalar". Toshkent, 2005 yil. B. 6-39.

16. Tadjiev M, Ochildiev N.N. va boshqalar –Surxondaryo viloyatida g'o'za va g'o'za majmuidagi qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyalari bo'yicha tavsiyalar .Termiz 2017 , b.t. 4,8

17. Tadjiev M, Abduolimov Sh, Tadjiev K.M, Ochildiev N.N., Abdimuminov Sh "Surxondaryo viloyatining ekstremal iqlim sharoitlarida g'o'zadan ertaki hosil yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni yaratish bo'yicha tavsiyalar", Termiz-202 y Bosma taboq 2,0, b-32. 18. Tadjiev M, Charieva X.D, Ochildiev N.N., Tadjiev K. M., B.U.Begimqulov, Xudaynazarov A. "Istiqbolli yangi o'rta tolali g'o'zaning O'zPITI-1604 navidan yuqori hosil va sifatli tola hamda sara urug' yetishtirish bo'yicha tavsiyalar", Termiz, 2024 yil, b.t 2,5. -B.24.

19. Ochildiev N.N., Charieva X.D, Tadjiev M, Tadjiev K. M., A.T.Xoliqov, Sh.X.Xolmo'minov. "Ingichka tolali g'o'zaning birinchi tip tola beradigan Termiz-202 navidan yuqori hosil va sifatli tola yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyalar", Termiz, 2024 yil, b.t 2,5. -B.40.

MUNDARIJA

1.	Kirish.....	4.
2.	Ingichka tolali g‘o‘zaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, paxta tolasiga qo‘yiladigan asosiy shartlar va paxtadan yuqori hosil yetishtirish omillari, ilmiy-tadqiqot o‘tkazish uslubi va tuproq iqlim sharoitlari.....	7.
2.1	Ingichka tolali g‘o‘zaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati.....	7
2.2.	Paxta tolasiga qo‘yiladigan asosiy shartlar va g‘o‘zadan yuqori hosil yetishtirish omillari.....	
2.3.	Ilmiy-tadqiqot o‘tkazish uslubi va Surxon-Sherobod vohasining tuproq-iqlim tabiiy sharoitlari.....	10
3.	SP-1607 navi morfologiyasi, biologiyasi va parvarishlash texnologiyasi.....	12
4.	Konkurs navlar tanlovi sinovi tajriba natijalari.....	15
5.	Termiz Davlat navlarni sinash shaxobchasi tajriba natijalari.....	16
6.	SP-1607 navidan yuqori paxta hosili va sifatli tola yetishtirish agrotexnologiyasi.....	18
7.	Ingichka tolali g‘o‘za navlari bo‘yicha ishlab chiqarish natijalari.....	26
8.	Xulosalar va tavsiyalar.....	29
9.	Foydalanilgan adabiyotlar.....	33

Ilmiy-ommabop nashr

O.T.Alimardonov, M.Tadjiev, N.N.Ochildiev, X.D.Charieva,
X.T.Bekmurodov, K.M.Tadjiev

“Respublikaning janubiy xududlarida ingichka tolali g‘o‘zaning birinchi tip tola
beradigan sp-1607 navidan yuqori hosil yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha
tavsiyalar”

Ma’sul muxarrir:	M.Tadjiev
Muxarir:	B.Raxmatov
Texnik muharir:	J.Shaymatov
Sahifalovchi	Z.Tursunova

BOSMAXONA MANZILI:

“Surxon-nashr” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Termiz shaxri, Ayritom ko‘chasi, 25/15- uy

Tel : (0376) 223-24-74